

Date: 9th December-2025

YOSHLARNI OILA QURISHIGA HUQUQIY TAYYORGARLIK: DOLZARB MUAMMO VA YECHIMLAR

Raximov Sherbek Kamolovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti

Maxsus fanlar sikli o'qituvchisi, mayor

+99899-798-59-70

Annotasiya: Mazkur maqolada jamiyatda kechayotgan ijtimoiy, madaniy va axloqiy o'zgarishlar fonida yoshlar orasidagi nikohgacha munosabatlarning huquqiy jihatlari atroflicha tahlil qilingan. Nikoh va oilaviy hayotga tayyorlanishdagi dolzarb muammolar, xususan, huquqiy savodxonlikning pastligi, erta nikoh va ajrimlar, oilaviy zo'ravonlik holatlari yoritilgan. Shuningdek, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha huquqiy, ma'rifiy va ijtimoiy yechimlar, davlat siyosati va qonun hujjatlari asosida ishlab chiqilgan takliflar keltirilgan. Maqola yoshlar orasida sog'lom oilaviy munosabatlar shakllantirishga xizmat qiladigan amaliy tavsiyalarni ham o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Yoshlar, oilaviy hayot, huquqiy tarbiya, nikohgacha munosabatlar, Oila kodeksi, Konstitutsiya.

Аннотация: В данной статье всесторонне рассмотрены правовые аспекты добрых отношений среди молодежи на фоне происходящих в обществе социальных, культурных и нравственных изменений. Освещены актуальные проблемы подготовки молодежи к семейной жизни, в том числе низкий уровень правовой грамотности, ранние браки и разводы, случаи семейного насилия. Также представлены правовые, просветительские и социальные решения, направленные на формирование у молодежи ответственного подхода к институту семьи, а также предложения, разработанные на основе государственной политики и нормативно-правовых актов. Статья содержит практические рекомендации по формированию здоровых семейных отношений среди молодежи.

Ключевые слова: Молодежь, семейная жизнь, правовое просвещение, добрые отношения, Семейный кодекс, Конституция.

Annotation: This article thoroughly examines the legal aspects of premarital relationships among youth against the backdrop of ongoing social, cultural, and moral changes in society. It highlights current issues in preparing young people for family life, including low legal literacy, early marriages and divorces, and instances of domestic violence. The article also presents legal, educational, and social solutions aimed at fostering a responsible approach to family among young people, along with policy-based proposals derived from national legislation. Practical recommendations are offered to support the development of healthy family relationships among the youth.

Keywords: Youth, family life, legal education, premarital relations, Family Code, Constitution.



Date: 9th December-2025



Bugungi kunda jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va axloqiy o'zgarishlar yoshlar hayotiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, nikohgacha munosabatlar masalasi nafaqat axloqiy, balki huquqiy nuqtai nazardan ham tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlar orasidagi erta munosabatlar, ularning oqibatida vujudga kelayotgan ijtimoiy muammolar – jumladan, erta onalik, ajrimlar, oilaviy mas'uliyatsizlik – huquqiy yechimlarning zarurligini yana-da oshkor etmoqda.

Shu nuqtai nazardan, nikohgacha munosabatlarning huquqiy jihatdan tartibga solinishi, yoshlarning huquqiy ongini yuksaltirish, oilaviy hayotga ongli va mas'uliyatli yondashishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Ushbu maqolada mazkur masalani huquqiy, ma'rifiy va axloqiy nuqtai nazardan tahlil qilish hamda uning yechimlarini ko'rib chiqish maqsad qilingan.

Shu o'rinda mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mulohazalariga e'tibor qaratsak: "Oila – bu mehr va baxt qo'rg'oni. Oila bor ekan, farzand degan bebaho ne'mat bor, insoniy qadr-qimmat va ma'naviyat bor. Oilaviy baxt bu – eng ulug' saodatdir. Mashhur qo'shiqlardan birida aytilganidek, "Uyida baxti borlar – har yerda baxtiyordir".²

Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasining "Oila, bolalar va yoshlar" deb nomlangan XIV-bobi 76-moddasida ifodalanishicha: "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir".³ Ushbu norma mazmun-mohiyatidan anglashiladiki, oila instituti falsafiy-huquqiy, ijtimoiy-biologik va ma'naviy-ahloqiy kategoriyadir. Bu degani, xalqimizning oilaga taalluqli milliy an'ana va qadriyatlari hamda oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun davlat ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa zarur shart-sharoitlarni yaratib beradi. Oila bilan bog'liq qoidalarga qiyosiy-tahliliy nazar shundan dalolat beradiki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik va Oila kodekslari, shuningdek boshqa tegishli normativ hujjatlarimizning xalqparvarligiga, ularning milliy qadriyatlarimiz va an'analарimiz bilan uyg'unligiga amin bo'lamiz.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 15-moddasiga muvofiq O'zbekistonda nikoh yoshi erkaklar va ayollarlar uchun o'n sakkiz yosh etib belgilangan⁴. Nikohdan o'tish uchun ariza topshirilayotganda, nikohdan o'tmoqchi bo'lgan shaxslarning yoshi belgilangan, ularning shaxsini tasdiqlaydigan hujjati talab etiladi.

Nikohlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki odamning immunitet tanqisligi virusi (OIV kasalligi) borligini ikkinchisidan yashirganda bunday nikoh ham haqiqiy hisoblanmaydi. Qonun chiqaruvchi qayd etilgan kasalliklar mavjudligi haqida ma'lum qilishga alohida ahamiyat beradi. Agar nikohlanuvchi shaxslardan biri boshqasining kasalligi haqida oldindan xabardor bo'lsa, bunday nikohni haqiqiy emas deb topish mumkin emas.

Oilada er va xotinning teng huquqligi shaxsning huquqiy mavqeini belgilovchi konstitutsiyaviy qoidalaridan kelib chiqadi. Bunga ko'ra har bir erkak va ayol fuqarolarning bir xil huquq va erkinlikka egaligi hamda qonun oldida tengligi; yashash va turar joylarini

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2021-yil 6-mart.

³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. –B. 43.

⁴ O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi: Rasmiy nashr - - Toshkent: "Adolat", 2021. –B. 8.

Date: 9th December-2025



erkin tanlashga egaligi; o'z faoliyatining turini va kasbini tanlashdagi erkinliklari ifodalangan. Er va xotin teng huquq va majburiyatlarga hamda o'zaro munosabatlarda va farzandlari bilan bo'lgan munosabatlarida, nikoh tuzish, nikohda bo'lish va nikohni bekor qilinishi kabi munosabatlarda bir hil javobgarlikka egadirlar.

Er-xotin o'rtasidagi shaxsiy munosabatlar maxsus ahamiyatga ega, ular o'z egalari bilan chambarchas bog'liq va ulardan ajratilmaydi. Aynan shaxsiy munosabatlar nikoh asosini tashkil qiladi va er-xotin o'rtasidagi boshqa munosabatlarga ta'sir ko'rsatadi. Ular er-xotin munosabatlari tarzini va xususiyatini belgilaydi⁵.

Er-xotin oilaviy turmush masalalarini birgalikda hal qilish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 19-moddasida "Er va xotin oilada teng huquqlardan foydalanadilar va ular teng majburiyatlarga egadirlar" deb belgilangan.⁶ Ya'ni, bundan er va xotin bolalar tarbiyasi va oilaviy turmushning boshqa masalalarini birgalikda hal qiladilar, degan mazmun-ma'no kelib chiqadi.

Zamonaviy jamiyatda oila qurish nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy jihatlari bilan chambarchas bog'liq jarayondir. Yoshlar oilaviy hayotga nisbatan yetarlicha bilim, ko'nikma va huquqiy tushunchalarga ega bo'lmasa, ularning nikoh munosabatlari betartib, ixtiyoriy ajralishlar va oilaviy nizolar ko'payishiga olib keladi. Shu sababli, yoshlarni oilaviy hayotga huquqiy jihatdan tayyorlash – bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

1. Yoshlarni oilaviy hayotga huquqiy tayyorlashning ahamiyati

Oila – jamiyatning asosiy hujayrasi bo'lib, uning barqarorligi davlat taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yoshlar to'g'ri huquqiy qarorlar qabul qila olishlari uchun quyidagi jihatlarni bilishi zarur:

- **Nikoh shartnomasi** (mulk, nafaqa, farzandlarning huquqlari);
- **Ajralish tartibi va oqibatlari;**
- **Oila ichidagi zo'ravonlikka qarshi huquqiy himoya mexanizmlari;**
- **Farzandlarning huquqlari va ota-onalarning majburiyatlari.**

Huquqiy savodxonlikning yetishmasligi yoshlarni noxolis nikohlar, moliyaviy qiyinchiliklar va ijtimoiy muammolar oldida himoyasiz qoldiradi.⁷

2. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashdagi huquqiy muammolar

• **Huquqiy bilimlarning etishmasligi.** Ko'p yoshlar nikohning huquqiy jihatlari, shu jumladan nikoh shartnomasi, ajralish protsedurasi yoki oilaviy nizolarni hal qilish yo'llarini bilmaydilar.

• **Maktab va oliy ta'lim muassasalarida oilaviy-huquqiy ta'limning yetishmasligi.** Oilaviy huquq mavzusi darsliklarda yetarlicha yoritilmaydi.

• **Oilaviy zo'ravonlik.** Ayollarning huquqlari himoyasining zaifligi, ayniqsa qishloq joylarda, keng tarqalgan muammodir.

⁵ Rustamova N.R. "Oila va nikoh tushunchalarining ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-huquqiy talqini" maqolasidan. <https://constitution.uz/> 2023-y.

⁶ O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi: Rasmiy nashr - - Toshkent.: "Adolat", 2021. –B. 8.

⁷ Rustamova N.R. "Oila va nikoh tushunchalarining ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-huquqiy talqini" maqolasidan. <https://constitution.uz/> 2023-y.

Date: 9th December-2025

3. *Yoshlarni oilaviy hayotga huquqiy tayyorlashning yechimlari*

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi choralarni ko'rish mumkin:

✓ Oilada ayol o'z vazifalarini chuqur bilishi, er o'z majburiyatlarini anglab yetishi oilani mustahkam qiladi.

✓ **Davlat tomonidan yoshlar uchun oilaviy-huquqiy maslahat markazlarini tashkil etish.** Psixologik va yuridik yordam ko'rsatish.

✓ **Yoshlar uchun huquqiy maslahat xizmatlarini tashkil etish.** Har bir tuman va mahallada bepul "Huquqiy maslahat markazlari"ni tashkil etish. Psixolog va yuristlardan iborat mutaxassislar guruhi orqali yoshlarni maslahat bilan ta'minlash.

✓ **Nikohdan oldingi tayyorgarlik kurslarini joriy etish.** Turmush qurmoqchi bo'lgan juftliklar uchun majburiy tayyorgarlik kurslarini yo'lga qo'yish. Kurslar doirasida huquq, salomatlik, moliyaviy savodxonlik, oilaviy psixologiya kabi yo'nalishlarni qamrab olish.

✓ **Mahalla va ota-onalar bilan hamkorlikda targ'ibot ishlari.** Mahalla faollari, nuroniylar va imom-xatiblar orqali sog'lom oila qadriyatlarini tushuntirish. Ota-onalarni farzandlarining oilaviy hayotga tayyorgarligida faol ishtirok ettirish.

✓ **Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda targ'ibot.** Oila huquqlari, nikoh mas'uliyati, zo'ravonlikdan himoya kabi mavzularda video roliklar, podkastlar, maqolalar e'lon qilish. Mashhur bloggerlar, aktyorlar va ta'sir kuchiga ega shaxslarni jalb etish orqali yoshlarga ta'sirchan tarzda murojaat qilish.

Xulosa o'rnida, yoshlarni oilaviy hayotga huquqiy jihatdan tayyorlash – nafaqat shaxsiy, balki butun jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi muhim jarayondir. Buning uchun ta'lim tizimi, davlat siyosati va fuqarolik jamiyatining uyg'un hamkorligi zarur. Faqatgina yaxshi tashkil etilgan huquqiy tayyorgarlik orqali yosh avlod barqaror, baxtiyor oilalar qurishga erishadi.

Yoshlarni oila qurishga huquqiy jihatdan tayyorlash jarayonini samarali tashkil etish uchun quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqilishi mumkin:

- **birinchidan**, yoshlarni oila qurishga tayyorlashda erkakning ma'naviy, huquqiy, moddiy, jismoniy holatiga alohida e'tibor qaratish;

- **ikkinchidan**, onlayn platformalar orqali yoshlarga qo'llanmalar va videodarsliklar taqdim etish (masalan, nikoh shartnomasi tuzish bo'yicha namunalar);

- **uchinchidan**, ijtimoiy tarmoqlarda oilaviy huquqiy savodxonlikni oshirish;

- **to'rtinchidan**, "Eng yaxshi oilaviy loyiha" tanlovlarini o'tkazish;

- **beshinchidan**, yoshlarning oilaviy huquqiy bilim darajasini o'rganish uchun sotsiologik so'rovlar o'tkazish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. -B. 43.

2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi: Rasmiy nashr - - Toshkent.: "Adolat", 2021. –B. 8-10.



Date: 9th December-2025

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2021-yil 6-mart.
4. Rustamova N.R. “Oila va nikoh tushunchalarining ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-huquqiy talqini” maqolasidan. <https://constitution.uz/> 2023-y.



International Conferences
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings

